

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ISAQOVA SHAXNOZA XOLTURA QIZI**

**ODDIY KASHTAN MEVASINING BOKIMYOVIY TAHLILI VA UNING  
OZIQ-OVQAT SANOATIDA QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI**

**02.00.17 – Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda  
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari  
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)**

**Isaqova Shaxnoza Xoltura qizi**

Oddiy kashtan mevasining biokimyoviy tahlili va uning oziq-ovqat sanoatida  
qo‘llash texnologiyasi ..... 3

**Исакова Шахноза Холтура кизи**

Биохимический анализ плодов каштана обыкновенного и его технологии  
применения в пищевой промышленности ..... 21

**Isakova Shakhnoza Xoltura kizi**

Biochemical analysis of the fruits of the common chestnut and its technology of  
application in the food industry ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ISAQOVA SHAXNOZA XOLTURA QIZI**

**“ODDIY KASHTAN MEVASINING BOKIMYOVIY TAHLILI VA UNING  
OZIQ-OVQAT SANOATIDA QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI”**

**02.00.17 – “Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda  
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari”  
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Texnika fanlari bo'ylab felsefa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4,PhD/T4132, raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bobayev Isomiddin Davronovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Isabayev Ismoil Babadjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Qarshiyev Tolib Oblaqulovich**  
biologiya fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2025-yil «27» 02 «11<sup>00</sup>» da Toshkent kimyo-texnologiya institutining DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy kengash yig'ilishida bo'ladi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti\_info@edu.uz.). Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'ch.32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» 02 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «17» 02 dagi № 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Signature]*  
**S.M. Turobjonov**  
Ilmiy darajalar beradigan  
Ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor, akademik

*[Signature]*  
**X.E. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beradigan  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d., professor

*[Signature]*  
**Q.P. Serkayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dotsent

## KIRISH (PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda butun dunyoda tibbiyot amaliyotida qo'llanilayotgan preparatlarning salmoqli qismi o'simliklar tarkibidan ajratib olingan biologik faol birikmalar hissasiga to'g'ri keladi. Chunki o'simlik xomashyosi asosida tayyorlangan dori vositalari hamda biologik faol ozuqa qo'shimchalar uzoq vaqt foydalanilganda ham organizmga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda o'zining ijobiy natijasini beradi. Ayniqsa, dori vositalari hamda biologik faol qo'shimchalar olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyolar oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va biologik qiymatini oshirishda dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda ovqatlanish ratsionining asosini tashkil etuvchi non mahsulotlarining texnologik ko'rsatkichlarini o'simlik tabiatli qo'shimchalar asosida yaxshilash, iste'mol xavfsizligi, biologik qiymatini hamda xamirning reologik xossalari va non sifati oshirish, ekologik toza xomashyo resurslaridan ratsional kompleks foydalanib, mahsulotning tannarxini kamaytirish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz aholisining non mahsulotlari iste'moli yuqoriligi hisobga olinib, biofaol moddalarga bo'lgan kunlik ehtiyojni qondirish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo'nalishida «Oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida non ishlab chiqaruvchi korxonalarida o'simlik tabiatli qo'shimchalar asosida ekologik toza non mahsulotlarini chiqarish va ularning assortimentini kengaytirish bo'yicha yangi texnologiyalar ishlab chiqilib, bir qancha yutuqlarga erishildi. Ammo, non mahsulotlarini ishlab chiqarishda biofaol qo'shimchalar asosida oziqaviy va iste'mol qiymatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, keng tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4554-son va 2020-yil 10-noyabrda "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4887-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022-2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son farmonining "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash" bo'yicha bandi va 2024-yil 16-fevralda "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son farmonlarini bajarish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.<sup>1</sup>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-55-son "2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oddiy kashtan (*Aesculus hippocastanum* L.) daraxti biokimyoviy tarkibi, boshqa dorivor o'simliklar bilan taqqoslanganda turli kamyob biologik faol birikmalarga boyligi bilan farqlanadi, jumladan  $\alpha$ -essin,  $\beta$ -essin, essigenin, protoessigenin, baringtogenin, flavonoid taninlar, sterollar, yog'lar, polisaxaridlar, vitaminlar mavjud bo'lgan metabolitlar saqlovchi o'simlik manbalarini izlash, biologik jihatdan faolligi yuqori birikmalarni individual holda ajratib olish usullarini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tuzilishi va biologik faolligini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jahon amaliyotida xorijlik olimlar Proserpio G., Gatti S., Genesi P., Guillaume M., Padioleau F., Yoshikawa, M., Murakami T., Matsuda H., Yamahara J., Murakami N., Kitagawa I., Matsuda H., Li Y., Murakami T., Ninomiya K., Araki N., Yoshikawa M., Yamahara I., Čukanović J., Ninić-Todorović J., Ognjanov V., Mladenović E., Mirjana L., Kurjakov A., Paterska M., Bandurska H., Wysłouch J. lar tomonidan oddiy kashtan urug'laridan biofaol saponinlar va glikozidlar III va escins II, Ib, Ila, Iib, IIIa, flavinoidlar, triterpenlar, kumarinlar, steroidlar va boshqa ikkilamchi metabolitlarni ajratib olish usullari ishlab chiqilgan hamda biologik faolliklari aniqlangan.

MDH davlatlari hududida o'suvchi oddiy kashtan tarkibidan flavonoid glikozidlar, taninlar, oqsillar, pektinlar, kraxmal va boshqa metabolitlarni ajratib olish, biologik faolligini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari Vandishev V.V., Jarova O.G., Jukovich Ye.N., Kerimov Yu.B., Kutsik R.V., Maloshtan L.M., Postoyuk N.A. va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizda esa saponinlar, triterpenlar, kumarinlar, steroidlar, flavonoid glikozidlar, taninlar, oqsillar, pektinlar, flavonoid glikozidlar, oqsillar, pektinlar saqlovchi o'simlik turlarini izlab topish, ular tarkibidagi individual birikmalarni ajratib olish, tuzilishini isbotlash bo'yicha N.D. Abdullayev, I.D. Bobayev, N.Z. Mamadaliyeva, tuzilishi isbotlangan birikmalarning biologik faolligini aniqlashda V.N. Sirov, Z.A. Xushbaktovalarning xizmatlari katta. O'rganilgan o'simlik zaxirasi yetarli ekanligi, tarkibida turli sinf biologik faol birikmalar saqlashi, ushbu o'simliklar tarkibidan yangi va samarali biologik faol birikmalarni ajratib olish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish lozimligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi 2020-yil 29-oktabrdagi "2030-yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli farmonida keltirilgan "Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar" bobiga muvofiq hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ - 2019081644 - "Baliqchilik uchun ammofosni muqobili bo'lgan fosfor va azotfosforli mineral, ozuqabop qo'shimchalar olish texnologiyasini ishlab chiqish" (2020 - 2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** respublikamiz hududlarida madaniylashtirilgan oddiy kashtan (*Aescullus hippocastanum*) daraxtining mevasi tarkibidan biologik faol birikmalarni ajratish va ularni oziq-ovqat sanoatida qo'llash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:** Oddiy kashtan daraxtining yer ustki qismini ekstraksiya qilish, fraksiyalash va biologik faol birikmalarni ajratib olish bo‘lib, quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- oddiy kashtan mevasini ekstraksiya qilib fraksiyalarga ajratish;
- olingan ekstrakt, fraksiya va qoldiq mahsulotlarni biokimyoviy tarkibi tahlilini amalga oshirish;
- oddiy kashtan mevasidan olingan birikmalarni biologik faolligi bo‘yicha tahlilini amalga oshirish;
- oddiy kashtan mevasidan biologik faol birikmalarni olishning texnologik chizmasini ishlab chiqish;
- oddiy kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xom ashyodan oziq-ovqat sanoatida qo‘llash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oddiy kashtan daraxtining yer ustki qismining mevasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** oddiy kashtan daraxtining yer ustki qismining mevasidan ajratib olingan ekstraktlar, fraksiya va birikmalarni kimyoviy tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari, biologik faolligi hamda ularni oziq-ovqat sanoatida qo‘llash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda birikmalarni ekstraksiyalash, fraksiyalash: organik erituvchilarda ajratish, vakuumda erituvchilarni haydash yo‘li bilan quritish, yupqa qatlamli va kolonkali xromatografiya usuli bilan biologik faol birikmalarni ajratish usullaridan foydalanilgan. Olingan ekstraktlar, fraksiyalar va birikmalarni aniqlash uchun fizik-kimyoviy tadqiqot tahlillari: yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), yuqori samarali suyuqlik xromatograf mass-spektrometriya (YuSSX-MS), gaz-suyuqlik xromatografiya (GSX) va ultrabinafsha (UB) usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

oddiy kashtan guli efir moylarini kimyoviy tarkibi aniqlanib, asosiy biologik faol moddalari - nonilchloroformat 13.00%, 1-buten, 2-(chloromethyl) 5.468%, 1-benzazirene-1-carboxyl kislota, 2,2,5a-trimethyl-1 $\alpha$ -[3-oxo-1-butenyl] perhydro-, methyl este 6.018%, 2-p-nitrophenyl-oxadiazol-1,3,4-on-5)8.264 %, gexasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11-dodecamethyl-geksasilaksan 6.612%, trimethylsilyl-di-(ti-methylsiloxy)-silan 6.566% saqlashi isbotlangan;

quritilgan oddiy kashtan mevasi xona haroratida 1:1 nisbatdagi xloroform-metanol aralashmasida ekstraksiya qilinib, ballast moddalari - xlorofillar, lipidlardan tozaligi asoslangan;

oddiy kashtan mevasidan suvda eruvchan polisaxaridlar va pektin moddalar kislotali muhitdan 22,0%, neytral muhitdan 9,5% unum bilan ajratib olinib, mevaning polimer tarkibida L-arabinoza va D-galakturon kislota, pektin moddalar dominantligi isbotlangan;

oddiy kashtan mevasidan olingan suvda eruvchan polisaxaridlarning SEPS-i va SEPS-s 2 namunalarning xususiyatlarini vitro sharoitda aniqlanib, Lactobacillus casei K7 da probiyotik faolligi SEPS-s qo‘shilgan muhitda L. casei K7 hujayralarining titri bir darajaga ko‘tarilishi va  $7 \times 10^{10}$  CFU/ml ni tashkil etishi asoslangan;

kashtan mevasidan biologik faol moddalarni ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi mahsulot va bug'doy unidan olingan non tarkibida umumiy oqsilning massa ulushi nazorat qiymatidan o'rtacha 1,3% ga oshishi isbotlangan;

oddiy kashtan mevasidan biologik faol moddalar olish va ajratib olingan ikkilamchi oqsilli mahsulotdan non tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Ilk marotaba YuSSX-MS-yordamida oddiy kashtan daraxtining yer ustki qismlarini (mevasi, po'sti, guli) etanolli va suvli ekstrakti hamda ularni geksanli, xloroformli, etilasetatli, n-butanolli fraksiyalarining kimyoviy tahlil qilish usuli ishlab chiqilib, tarkibidagi birlamchi, ikkilamchi metabolitlar tahlil qilingan.

Tadqiqotlar novvoylik bug'doy unining funksional xossalarini yaxshilash maqsadida o'simlik tabiatli kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyodan un massasiga nisbatan 5%; 10% va 15% qo'shib, eksperimental tadqiqotlar olib borildi va tarkibida tabiiy bo'lgan oqsilli qo'shimchalar qo'shib non mahsulotlari olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan. Mavjud ishlab chiqarish korxonasida o'simlik tabiatli qo'shimchani saqlash va ishlab chiqarish jarayoniga uzatish maqsadida shnekli uzatmalar o'rnatildi.

Yillik quvvati o'rtacha 1500 t unni qayta ishlab non mahsuloti ishlab chiqarish korxonasi 8,66 mln. so'm kapital xarajatlar, 10% xomashyo o'rni almashishi va mahsulot chiqishi unumi 1,7% oshishi hisobiga nazoratga nisbatan 1,03 mlrd. so'm yillik iqtisodiy samaradorlikka erishildi. Ushbu taklif etilgan texnologiya nafaqat iqtisodiy jihatdan samarador, balki non mahsulotlari turlari va sifatini ham oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ajratib olingan moddalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik-tadqiqot YuQX, YuSSX, YuSSX-MS, GSX va UB-spektr usullar va standart moddalar bilan taqqoslash usullardan foydalanganligi, ular asosida olingan natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, olingan ilmiy natijalarning samaradorligining zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlil qilinganligi, vakolatli davlat organlari tomonidan dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalarini tasdiqlanganligi va ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, oddiy kashtan o'simligidan birikmalar ajratilib, tuzilishlari isbotlangan, efir moyi tarkibi identifikatsiya qilingan, n-butanolli fraksiyaning kimyoviy tahlil usulida tarkibidagi ikkilamchi metabolitlar aniqlash usuli ishlab chiqilganligi va biologik faolliklari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor, novvoylik bug'doy unining funksional xossalarini yaxshilash maqsadida o'simlik tabiatli oddiy kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyodan un massasiga nisbatan 5%; 10% va 15% qo'shib, eksperimental tadqiqotlar olib borilgan. Natijada, kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyodan un massasiga nisbatan 10% qo'shilganda non mahsulotlarining texnologik ko'rsatkichlari nazoratnikiga nisbatan yaxshilanganligini ko'rsatgan. Tarkibida tabiiy bo'lgan kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xom ashyosini qo'shib non mahsulotlari olishning retsepturasi va mahsulot tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy oddiy kashtan daraxti mevasidan biologik faol birikmalarni ajratish va oziq-ovqat sanoatida qo'llash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

mahalliy sharoitda o'sadigan oddiy kashtan daraxti mevasidan biologik faol birikmalarni ajratish ikkilamchi xomashyosidan olingan oqsilli qo'shimchalarni qo'shib non mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi «O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi»ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 11-iyuldagi 11-66/07-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, hajmi 40 - 60 sm<sup>3</sup>, solishtirma hajmi 0,55-0,65 g/sm<sup>3</sup>, mag'z g'ovakligi 7-8% ga, H/D ko'rsatkichi 0,11-0,14 birlik, organoleptik bahosi 10-12 ballga oshirilgan non ishlab chiqarish imkonini bergan;

mahalliy sharoitda o'sadigan oddiy kashtan daraxti mevasidan biologik faol birikmalarni ajratish ikkilamchi xomashyosidan olingan oqsilli qo'shimchalarni qo'shib non mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi «O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi»ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 11-iyuldagi 11-66/07-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, unning suv yutish qobiliyatini oshirish hisobidan qolipli non chiqish unumini 1,5-1,7% oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari, 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tematik konferensiyalar hamda ishlab chiqarish sharoitlarida tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi va nashr etilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oddiy kashtan (*Aescullus hippocastanum*) daraxtining yer ustki qismining metabolitlari**» deb nomlangan **birinchi bobida** dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro va respublikamizdagi ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi keltirilib, unda kashtan daraxti haqida umumiy ma'lumotlar, oddiy kashtan (*Aescullus hippocastanum*) daraxtining kimyoviy tarkibi, oddiy kashtan tarkibidagi

sterollarning kimyoviy tuzilishi va uning biofaol xususiyatlari, sterollarning biologik va kimyoviy transfikatsiyasi uzilishi va uning biofaol xususiyatlari, oddiy kashtan daraxtidan olinadigan birikmalarning biologik faolliklari, oddiy kashtan mevasidan biofaol modda ajratib olishda hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyolar va ularning tarkibi, non mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'shimcha sifatida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar tahlili hamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oddiy kashtan mevasining fitokimyoviy tarkibini tadqiq qilishning zamonaviy usullari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot materiallari, ularning tavsifi, oddiy kashtan mevasi tarkibidagi oqsil qismini, oddiy kashtan guli tarkibidagi efir moyini, oddiy kashtan mevasining suvda eriydigan polisaxaridlarini, oddiy kashtan mevasining yog' kislotalar tarkibini, oddiy kashtan mevasining po'stidagi melanin tarkibini tahlil qilishning fizik-kimyoviy va zamonaviy ucellari hamda ikkinchi bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oddiy kashtan mevasidan biologik faol birikmalarni ajratib olish usullari**» deb nomlangan **uchinchi bobida**, oddiy kashtan mevasi tarkibidagi biologik faol birikmalarining tahlili zamonaviy usullardan foydalanib amalga oshirildi.

Oddiy kashtan mevasi tarkibidagi oqsil qismidan erkin aminokislotalarni ajratib olindi va ularning tahlili YuSSX (yuqori samarador suyuqlik xromatografiya) yordamida amalga oshirildi. Olingan natijalar standart bilan taqqoslanib aminokislotalar aniqlandi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval

##### Kashtan mevasi oqsil yig'masidagi erkin aminokislotalar tarkibi YuSSX tahlili

Aminokislotalarning nomi	Kashtan ekstraktidan ajratilgan oqsil gidrolizi, mg/gr
<b>Asparagin kislota</b>	<b>0,984624</b>
Glutamin kislota	0,072679
Serin	0,05994
Glitsin	0,389639
Asparagin	0,389143
<b>Glutamin</b>	<b>0,866727</b>
Sistein	0
Treonin*	0,110409
<b>Argenin•</b>	<b>0</b>
<b>Alanin</b>	<b>0,91063</b>
<b>Prolin</b>	<b>1,142157</b>
<b>Tirozin•</b>	<b>0,167719</b>
Valin*	0,226244
Metionin*	0,104827
Izoleysin*	0,010684
Leysin*	0,034017
<b>Gistidin•</b>	<b>0,178357</b>
Triptofan*	0,098502
Fenilalanin*	0,011955
Lizin*	0,015152
<b>Jami</b>	<b>5,773404</b>

\*Almashinmaydigan aminokislotalar; • Yarim almashinadigan aminokislotalar

YuSSX-ning ishlatilgan ishchi holati: DAD detektorli Agilent Technologies 1200 xromatograf, 75x4.6 mm Discovery HS C18. A eritmasi: 0,14M CH<sub>3</sub>COONa

+ 0,05% TEA pH 6,4; B-eritma: CH<sub>3</sub>CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, yutilish 269 nm. Gradiyent % B/min: 1-6%/0-2.5 min; 6-30%/2.51-40 min; 30-60%/40,1-45 min; 60-60%/45,1-50 min; 60-0%/50,1-55 min. Oddiy kashtan mevasi tarkibidagi oqsil qismidan erkin aminokislotalarni YuSSX yordamida tahlili amalga oshirilganda erkin almashinmaydigan, yarim almashinadigan aminokislotalar chiqish vaqtlari aniqlandi.







**Oddiy kashtan guli tarkibidagi efir moyi tahlili.** Oddiy kashtan gul qismi Klevendjer apparatida 6 soat davomida gidrodistillyatsiya usuli bilan ajratib olindi. Olingan aralashmadan efir moyini ajratib olish uchun eritma dixlormetan bilan ekstraksiya qilindi va keyin magniy sulfat yordamida quritildi.














Oddiy kashtan guli asosiy efir moylarini kimyoviy tarkibi Agilent 8890 GC-da, SIM, SCAN va Electron Impact (EI) ionlash rejimlarida Agilent 5977B Series GC/MSD bilan ishlatiladigan elektronlar zarbasi bilan tahlil qilindi.







Oddiy kashtan guli efir moyini kimyoviy tarkibi gaz-suyuqlik xromato-mass-spektrometriya yordamida tahlili amalga oshirilganda efir moyining chiqish vaqtlari aniqlanib, ularning natijalar xalqaro bazalardagi standartlar bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlandi (2-jadval).

## 2-jadval

### Gaz-suyuqlik xromato-mass-spektrometriya yordamida kashtan guli efir moyini kimyoviy tarkibining tahlili

№	Ushlanish vaqti, min. (RT)	Birikmaning kimyoviy nomi	Birikmaning kimyoviy tuzulishi	Nisbiy miqdor, foizlarda, %
1	3.826	Paromomycin		3.463
2	4.844	7-Chloro-3-heptyn		3.959
3	5.274	Nonyl chloroformat		13.00
4	6.638	5-Phenyl-2-(salicylidenehydrazino)-2-thiazolin-4-on		1.73
5	7.514	Bicyclo [10.1.0] trideca-4,8-diene-13-carboxamid, N-(4-fluorophenyl)		5.291
6	7.989	1-Pentanol, 5-cyclopropyliden		2.322
7	14.724	n-Hexadecanoic kislota		2.312

8	16.181	(2R,4R)-p-Mentha-[1(7),8]-dien, 2-hydroperoxid		2.680
9	17.200	1-Octanol, 2-butyl		3.875
10	18.660	1-Buten, 2-(chloromethyl)		5.468
11	18.861	7, 7, 9, 9, 11, 11-Hexamethyl-3,6,8,10,12,15-hexaoxa-7,9,11-trisila-heptadecan		1.312
12	19.147	Trimethylsilyl-di(trimethylsiloxy)- silan		1.267
13	19.259	4H-Furo[3,2-b]pyrrol-5-carboxylic kislota, 4-(2 oxopropyl)		1.462
14	19.438	[1,2,4] Triazolo [1,5-α] pyrimidine-6 -carboxylic kislota, 4,7-dihydro-7-imino-, ethyl efir		2.762
15	19.529	Korydaldin		0.651
16	19.783	Hexasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11-dodecamethyl		2.690
17	20.281	1-Benzaziren-1-carboxylic kislota, 2,2,5a-trimethyl-1α-[3-oxo-1-butenyl] perhydro-, methyl efir		6.018
18	20.557	2-p-Nitrophenyl-oxadiazol-1,3,4-on-5		8.264
19	20.810	Pyridin, 1,2,3,6-tetrahydro-1-methyl-4-[4-chlorophenyl]		3.121
20	21.545	Hexasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11-dodecamethyl		6.612

21	21.996	Trimethylsilyl-di(trimethylsiloxy)-silan		3.671
22	22.312	Heptasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11,13,13-tetra-decamethyl		4.840
23	22.526	Hexasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11-dodecamethyl		3.197
24	22.977	Trimethylsilyl-di(trimethylsiloxy)-silan		6.566
25	23.334	Silicic acid, diethyl bis(trimethylsilyl) efir		1.390
26	23.477	Trimethylsilyl-di(trimethylsiloxy)-silan		2.077

Oddiy kashtan guli efir moylarini kimyoviy tarkibi tahlil qilinganda (2-jadval), ularning asosiy biologik faol moddalari – Nonilchloroformat 13.00%, 1-Buten, 2-(chloromethyl) 5.468%, 1-Benzazirene-1-carboxyl kislotasi, 2,2,5a-trimethyl-1 $\alpha$ -[3-oxo-1-butenyl] perhydro-, methyl este 6.018%, 2-p-Nitrophenyl-oxadiazol-1,3,4-on-5) 8.264%, Gexasiloxan, 1,1,3,3,5,5,7,7,9,9,11,11-dodecamethyl-geksasilaksan 6.612%, Trimethylsilyl-di(trimethylsiloxy)-silan 6.566%.

**Oddiy kashtan mevasining suvda eriydigan polisaxaridlari.** Ochiq havoda quritilgan oddiy kashtan mevasi ballast moddalarini (xlorofillar, lipidlar va boshqalar) olib tashlash uchun xona haroratida 1:1 nisbatdagi xloroform-metanol aralashmasidan foydalanib ketma-ket ekstraktsiya qilindi, so'ngra spirtida eriydigan qand qismi (SEQQ) 80% etanol bilan ekstraktsiya qilish orqali glyukoza hamda arabinoza ajratildi.

Oddiy kashtan mevasi tarkibidan suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS) suv bilan xona haroratida ekstraktsiya qilindi, ularning monosaxarid tarkibi galaktoza, glyukoza, arabinoza, ksiloza, raminoza va glyukuron kislotasi etilatsetat efirida qog'oz xromatografiyasi (QX) yordamida guvohlar bilan taqqoslash orqali aniqlandi. Xomashyodan pektin moddalar (PM) ma'lum usul bo'yicha ajratib olindi va u 13% ni tashkil etishi aniqlandi.

Keyin oddiy kashtan mevasi tarkibidan suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS-s) (sovuq suvdagi ekstraktsiya qilish orqali olingan ekstrakt) va SEPS-i (issiq suvda ekstraktsiya qilish orqali olingan ekstrakt), pektin moddalari (PM) hamda gemitsellyulozalar (GMS-A va GMS-B) ajratib olindi (3-jadval).

## 3-jadval

## Oddiy kashtan mevasidan ajratib olingan polisaxaridlar va monosaxaridlar tarkibi

PS turi	PS unumi, %	Monosaxaridlar tarkibi, %, YuSSX					UAc.
		Gal.	Glu.	Ara.	Ksil.	Rham.	
SEPS-s	3,3	1,6	-	2,0	2,2	1,0	+
SEPS-i	4,6	2,5	-	1,9	1,0	1,6	+
PM	3,0	2,3	-	1,0	1,3	2,0	+
GMS-A	1,5	1,0	2,3	2,0	1,3	-	-
GMS-B	5,5	2,0	3,5	1,5	2,0	1,0	+

Eslatma. Gal-galaktoza, Glu-glyukoza, Ara-arabinoza, Ksil- ksiloza, Rham-raminoza

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p miqdor SEPS-i 2,5%, PM 2,3% va GMC-B 2,0% unumda olingan. Ajratib olingan barcha polisaxaridlar kislotali, neytral qandlar tabiatga ega har xil nisbatda uchraydi, ammo GMC-B tarkibidagi monosaxaridlar galaktoza 2,0%, arabinoza 1,5% va ksiloza 2,0% dominant hisoblanadi.

Shunday qilib, oddiy kashtan mevasidan pektin moddalari va polisaxarid komponentlari, jumladan, suvda eruvchan polisaxaridlar va pektin moddalar kislotali muhitdan 22,0% unum bilan olingan, 9,5% neytral muhitdan suvda eruvchan polisaxaridlar ajratildi. Monomer tarkibi: mevaning polimer tarkibida L-arabinoza va D-galakturon kislota, pektin moddalar yuqori etilatsetatli efirida yuqori darajada erishi aniqlangan.

**Oddiy kashtan mevasidan olingan suvda eriydigan polisaxaridlarning probiotik faolligi.** Oddiy kashtan mevasidan olingan suvda eruvchan polisaxaridlarning 2 ta namunasining (SEPS-i va SEPS-s) prebiotik xususiyatlarini *in vitro* sharoitda o‘rganish, ularning laktobakteriyalarning o‘sishi va ko‘payishiga ta'sirini baholash orqali amalga oshirildi. Probiotik kultura sifatida O‘zR FA Mikrobiologiya instituti kultura kolleksiyasida saqlanayotgan *Lactobacillus casei* K7 dan foydalanildi. Nazorat sifatida ishlatiladigan MRS muhitidagi tirik hujayralar titri  $9 \times 10^9$  KOE/ml teng bo‘lgan. SEPS-i qo‘shilgan muhitda  $3 \times 10^{10}$  KOE/ml titri kuzatildi, bu nazoratdan ozgina farq qildi. SEPS-s qo‘shilgan muhitda *Lactobacillus casei* K7 hujayralarining titri bir darajaga ko‘tarildi va  $7 \times 10^{10}$  KOE/ml ni tashkil etdi (4-jadval).

## 4-jadval

## Oddiy kashtan mevasidan olingan suvda eruvchan polisaxaridlarning probiyotik faolligi

№	Oziqa muhiti	Tirik hujayralarning titri, KOE/ml
1	MRS-bulyon	$9 \times 10^9$
2	SEPS-i	$3 \times 10^{10}$
3	SEPS-s	$7 \times 10^{10}$

Probiotik faollikni aniqlash: SEPS-i qo‘shilgan muhitda  $3 \times 10^{10}$  KOE/ml titrida kuzatildi, bu nazoratdan ozgina farq qildi, SEPS-s qo‘shilgan muhitda *L. casei* K7 hujayralarining titri bir darajaga ko‘tarildi va  $7 \times 10^{10}$  CFU/ml ni tashkil etdi.

**Oddiy kashtan mevasining yog' kislotalar tarkibi.** Oddiy kashtan mevasidan olingan moyning yog' kislotalar tarkibi Agilent Technologies 6890 N gaz xromatografiyasi yordamida amalga oshirildi.

**5-jadval**

**Oddiy kashtan mevasidagi yog' kislotalar tarkibi**

No, t/r	Yog' kislotalari nomi	Yog' kislotalar indeksi	Yig'madagi miqdori, %
1	Kaprin kislota	10:0	iz
2	Laurin kislota	12:0	iz
3	Miristin kislota	14:0	0,12
4	Pentadekan kislota	15:0	-
5	Palmitin kislota	16:0	7,27
6	Palmitolein kislota	16:1	n9 0,15
7	Margarin kislota	17:0	0,25
8	Stearin kislota	18:0	2,47
9	Oleyn kislota	18:1	n9 51,46
10	Linolen kislota	18:3	n3 1,52
11	Linol kislota	18:2	n6 30,82
12	Araxin kislota	20:0	0,19
13	Eykozoin kislota	20:1	n9 5,75
14	$\sum$ to'yingan yog' kislotalar		10,3
15	$\sum$ to'yinmagan yog' kislotalar		89,7

Yog'lar miqdori tahlil qilinganda - to'yingan yog' kislotalar 10,3%; to'yinmagan yog' kislotalar 89,7% ni tashkil etib, linolen kislota 1.52%; eykozoin kislota 5.75%; palmitin kislota 7.27%; linol kislota 30,82%; oleyn kislota 51.46% tashkil etgan (5-jadval).

**Oddiy kashtan mevasining moyining mikroblarga qarshi faolligi.** Oddiy kashtan mevasining moyi sinalgan 7 ta test-mikroorganizmlardan 5 tasiga nisbatan yuqori mikroorganizmlarga qarshi faollikni namoyon qildi (6-jadval).

**6-jadval**

**Oddiy kashtan mevasining moyi shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi faolligi, diametri, mm.**

No	Shartli patogen mikroorganizmlar shtammlar nomi	Moyning mikroblarga qarshi faolligi zonasi diametri, mm
1	<i>Escherichia coli</i> NC 101	0
2	<i>Candida albicans</i>	12
3	<i>Staphylococcus aureus</i> D <sup>2</sup>	20
4	<i>Pseudomonas aeruginosa</i> 003841 /114	14
5	<i>Klebsiella oxitoca</i> 1	17
6	<i>Bacillus subtilis</i> BKM	0
7	<i>Proteus mirabilis</i> 6	15

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oddiy kashtan mevasining moyi test-mikroorganizmlarning keng spektrli yuqori faollikka ega ekanligi aniqlandi.

**Oddiy kashtan mevasining po'stidan melanin mavjudligini aniqlash.** Oddiy kashtan mevasining qoldiq mahsuloti qo'ng'ir rangli po'stlog'idan melanin ajratib olish uchun 1:12 nisbat aralashtirilib, harorati 55-60 °C bo'lgan suvda, 0,5 soat davomida ekstraksiya jarayoni amalga oshirildi. Jarayon 5 marta

takrorlandi va ekstraktlar birlashtirilib filtrlandi. Olingan ekstrakt tarkibida 20% suv qolgunga qadar rotorli bug‘latkichda bug‘latildi va quyuq massaga olindi. Quyuq massani natriy gidroksidining 0,25 normalli eritmasi bilan pH ko‘rsatkichi 12 oraliq muhitga kelguncha qo‘shildi va qo‘ng‘ir rangli tiniq eritma hosil bo‘ldi. Qo‘ng‘ir rangli eritmasini xlorid kislotaning 1 % eritmasi yordamida pH ko‘rsatkichi 1,5 oraliq muxitga olib kelindi va aralashmada cho‘kma hosil bo‘ldi. Aralashmani 1:2 nisbat etilatsetat efiri qo‘shib ekstraksiya qilindi va suvli qismdan etilatsetatli efiri qismi ajratib olindi. Suvli qismda qolgan cho‘kmani filtrlash yo‘li bilan ajratildi. So‘ngra cho‘kma to‘liq eriguncha 10% ammiakning suvli eritmasi qo‘shildi. Aralashma tarkibidan suvda eriydigan melanin kukun holga kelguncha liofil quritgichda quritiladi. Olingan kukun ko‘rinishdagi melanin olingan quruq xom ashyoga nisbatan 1,92% ni tashkil etish natijalari ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Oddiy kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xomashyodan non tayyorlash texnologiyasi**» deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** kashtan mevasidan biologik faol moddalarni ajratib olishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xomashyosi tarkibidagi (oqsil qismi) erkin aminokislotalarini ularning suvli ekstraktidan oqsillar va peptidlarni cho‘ktirish sentrifuga stakanlarida amalga oshirildi. Erkin aminokislotalar tarkibi tahlili YuSSX yordamida amalga oshirildi va olingan natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

**7-jadval**

**Un tarkibiga qo‘shilgan kashtan mevasidan biologik faol moddalar ajratib olishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xomashyo oqsil qismining aminokislotalar tarkibi**

Aminokislotalarning nomi	Kashtan oqsili qo‘shilgan un tarkibidagi aminokislota miqdori, mg/g			
	Un	Un+5% oqsil	Un+10% oqsil	Un+15% oqsil
Asparagin kislota	7.012374	6.19285	6.822201	6.986359
Glutamin kislota	14.47531	12.29823	12.03752	14.24669
Serin	4.700157	11.48119	13.85108	13.942761
Glitsin	7.4561	4.941517	5.685411	7.168621
Asparagin	0	0	0	0
Glutamin	0	0	0	0
Sistein	2.267844	5.634973	6.545355	8.139341
Treonin*	7.278442	18.13587	20.03649	12.72434
Argenin•	20.76491	19.823316	19.69858	19.327998
<b>Alanin</b>	<b>3.663457</b>	<b>13.89566</b>	<b>15.67066</b>	<b>18.30019</b>
<b>Prolin</b>	<b>8.663317</b>	<b>19.32745</b>	<b>21.49603</b>	<b>30.23102</b>
Tirozin•	<b>6.526913</b>	<b>2.319338</b>	<b>1.869805</b>	<b>2.183206</b>
<b>Valin*</b>	<b>9.513951</b>	<b>3.126482</b>	<b>3.556704</b>	<b>4.004713</b>
Metionin*	0.523553	4.971165	27.87545	9.204667
Gistidin•	10.66514	5.89715	11.49442	13.48606
Izoleysin*	4.678963	12.41635	14.63814	16.60987
Leysin*	12.9017	26.61821	31.22547	36.98230
Triptofan*	-	-	-	-
Fenilalanin*	3.809746	3.74114	4.257282	3.718143
Lizin*	3.244828	3.31984	3.60501	3.776152
Jami	<b>128.1467</b>	<b>174.1407</b>	<b>220.3656</b>	<b>221.0324</b>

\*Almashinmaydigan aminokislotalar; • Yarim almashinadigan aminokislotalar

